


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*71010401-Logistika magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti;  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;  
Toshkent davlat transport universiteti;  
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talabi “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>8</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	<b>9</b>
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>11</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

71010401 – Logistika mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 71010401 – Logistika mutaxassisligi bo'yicha magistratlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur mutaxassislik bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassislikning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalar, nodavlat va notijorat tashkilotlari, markaziy va mahalliy davlat boshqaruv organlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarida logistika xizmatini ko'rsatish va takomillashtirish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

Davlat va nodavlat tashkilot, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari, transport tashkilotlari, qishloq xo'jaligi va soha korxonalar.

71010401-Logistika magistratura mutaxassisligi bo'yicha bitiruvchilar oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

#### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy–tadqiqot;*
- *pedagogik;*
- *moliyaviy-iqtisodiy;*
- *hisob, tahlil va nazorat;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *konsalting xizmati;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

#### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

71010401-Logistika mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obektlari va turlariga muvofiq, magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyatida:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning), masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

##### **Moliyaviy-iqtisodiy hamda hisob, tahlil va nazorat faoliyatida:**

davlat, mahalliy hukumat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar iqtisodiy faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilishi va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish;

logistika xizmatlarida biznes jarayonlarni modellashtirish va raqamlashtirish, omborlarda saqlash, zaxiralarni boshqarish, buyurtmalarni boshqarish, yuklarni tashish, ortish, tushirish, qadoqlash, xaridlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni optimallashtirish;

kasbiy faoliyatda iqtisodiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qoʻllay olishi;

barqaror iqtisodiy rivojlanish sohasida yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari boʻyicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish;

biznes sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va uni rivojlantirish yoʻllarini ishlab chiqish;

Oʻzbekistondagi hamda xorijdagi mikro va makro darajada sodir boʻladigan, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar hamda hodisalarni xarakterlaydigan koʻrsatkichlarni tahlil qilish va qiyoslash, logistika xizmatlari bozorini rivojlanishiga tahdid soluvchi xavf-xatarlarni aniqlash;

byudjet tizimi va byudjet parametrlari, byudjetdan tashqari turli jangʻarmalarning shakllanishi hamda bajarilishini nazorat qilish, davlat va mahalliy resurslaridan samarali foydalanish choralarini koʻrish;

tovar-moddiy resurslar bilan bogʻliq moliyaviy oqimlar, moliya operatsiyalari, moliya bozori faoliyati monitoringini olib borish, davlat va mahalliy tashkilotlar, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimining samarali faoliyat koʻrsatishini baholash, qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish choralarini koʻrish.

### **Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish faoliyatida:**

ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish korxonalarida logistika servisini tashkil etish va boshqarish;

fan va texnika yutuqlarini logistika jarayoniga tatbiq etish;

tashkilot, kompaniya, korxonalarining korporativ va raqobat strategiyasi, shuningdek funksional strategiyalari (marketing, logistika, moliyaviy, kadrlar)ni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish;

tashkilot logistika tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

zamonaviy raqamli logistika tizimini yaratish va ularning natijalari asosida strategik qarorlar qabul qilish;

makro va mikro darajadagi logistika tizimlari va logistika zanjirlari, logistika boʻgʻunlari, ularda harakatlanadigan moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni loyihalash, ishlab chiqarish va xizmat koʻrsatish jarayonlarini tashkil etish va boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida logistika boʻlinmalarining tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni ragʻbatlantirish tizimini yoʻlga qoʻyish;

reja, hisob-kitob hujjatlarini yuritish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy rivojlanish sohasida ratsionalizatorlik takliflar va ixtirolar boʻyicha iqtisodiy samaradorlikni aniqlash;

qabul qilinadigan qarorlarni iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ularni xavf-xatar va oqibatlarini hisobga olgan holda boshqaruv qarorlari variantlarini ishlab chiqishda hamda tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

shartnomalarni tuzish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni to'plash, tezkor va statistik hisobotni olib borishni tashkil etish, hisobotlarni tuzish tartiblarini aniqlash;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish, bajarilayotgan nazariy va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tatbiq etish;

#### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

logistika faoliyat sohasida mavjud holatning tahliliy sharhini ishlab chiqish;

logistika faoliyat sohasida mutaxassislikka mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida rais (ishtirokchi) sifatida qatnashish;

mutaxassislikka mos mavzular bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;

logistika konsalting xizmatlarini ko'rsatish;

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

tovar-moddiy resurslar oqimi hamda tovar-moddiy resurslar oqimiga taalluqli bo'lgan moliyaviy va axborotlar oqimi to'g'risidagi axborotlarni yig'ish va ularni qayta ishlash;

logistika xizmatlari bozorini o'rganish va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlab chiqarish, etkazib berish, taqsimlash, transport, texnologik tizimlarni axborot bilan ta'minlashni tashkil etish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan logistikani boshqarishda foydalanish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarida bajariladigan logistika operatsiyalarni raqamlashtirish;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko'rib chiqish va tahlil qilish, ulardan ilmiy faoliyatda foydalana olish;

logistika faoliyatining axborot-tahliliy natijalari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

raqamli texnologiyalaridan logistika faoliyatida foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli logistikaning mohiyati va ahamiyatini tushunish, mijozlar bilan onlayn ishlash usullari va vositalarini aniqlash;

logistika tizimlarni loyihalashtirish, logistika zanjirida moddiy, moliyaviy va axborot oqimlarni optimallashtirish bo'yicha tadqiqot natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

barqaror rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan savdo va logistika tizimlarini joriy etish.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – majburiy mutaxassislik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy, ilmiy va tadqiqot ko'nikmalari, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy amaliyot (stajirovka).

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1105	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	150	5	1
1.02	MFO'M1105	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	150	5	1
1.03	LOGTM1105	Logistik tizimlarni modellashtirish	150	5	1
1.04	TJB1105	Ta'minot jarayonini boshqarish	150	5	1
1.05	RLOG1205	Raqamli logistika	150	5	2
1.06	BOJI1205	Bojxona ishi	150	5	2
1.07	LOGSB1205	Logistikani strategik boshqarish	150	5	2
1.08	IQTIN1205	Iqtisodiy integratsiya	150	5	2
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>600</b>	<b>20</b>	<b>3</b>
<b>2.00</b>		<i>Tanlov fanlar</i>	<i>600</i>	<i>20</i>	<i>3</i>
	<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Iqtisodchi, pedagog-tadqiqotchi</b>			
		<b>Logistika (transport faoliyati bo'yicha)</b>			
		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1204	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	3
		<b>Avtomobil transporti</b>			
1.03	YBZB11210	Yetkazib berish zanjirlarida boshqaruv	300	10	1,2



1.04	LNMU1306	Logistika nazariyasining modellari va usullari	300	10	2,3
1.05	RLOG1204	Raqamli logistika	180	6	1
1.06	TZL1306	Ta'qsimot va zahiralalar logistikasi	180	6	2
1.07	XYBJRT1206	Xalqaro yetkazib berish janjirlarida raqamli texnologiyalar	120	4	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>1,2,3</b>
<b>2.00</b>		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>480</b>	<b>18</b>	<b>1,2,3</b>
<b>Temir yo'l transporti</b>					
1.03	MTT11210	Multimodal transport texnologiyalari	300	10	1,2
1.04	XLOG11210	Xalqaro logistika	360	12	1,2
1.05	LZOT1304	Logistikada zamonaviy omborlar tizimi	180	6	2
1.06	RT1304	Refrijeratorli tashishlar	120	4	3
1.07	TLOG1304	Tijoriy logistika	120	4	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>480</b>	<b>16</b>	<b>1,2,3</b>
<b>2.00</b>		<i>Tanlov fanlar</i>	<b>480</b>	<b>20</b>	<b>1,2,3</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>	<b>Muhandis-logist, pedagog-tadqiqotchi</b>				
	<b>Jami</b>		<b>1800</b>	<b>60</b>	
		Ilmiy-pedagogik ish va ilmiy amaliyot (stajirovka)	600	20	1,2,3,4
		Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasi	1200	40	1,2,3,4
	<b>Jami</b>		<b>1800</b>	<b>60</b>	
	<b>HAMMASI</b>		<b>3600</b>	<b>120</b>	

### Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

#### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, mutaxassislik, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, magistraturaning o'quv jarayoni, iqtisodiyot, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot jarayoni, tashkiliy-boshqaruv, moliyaviy-iqtisodiy, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish, hisob, tahlil va nazorat, konsalting xizmati, axborot-tahliliy faoliyat, malaka amaliyoti, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot usullari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya, logistika xizmati, logistika tizimi, moddiy, moliyaviy va axborot oqimlar, ta'minot, ishlab chiqarish, ta'qsimot.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQILGAN:**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti**

Rektor  M.E. Po'latov



**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Rektor  I.Z. Teshabayev

202\_\_ yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_



**Toshkent davlat transport universiteti**

Rektor  O. Abduraymanov

202\_\_ yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_



**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi  
Toshkent axborot texnologiyalari  
universiteti**

Rektor  B. Maxkamov

202\_\_ yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_



**KELISHILDI:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
O'ztemiryo'lkonteyner aksiyadorlik jamiyati  
boshqaruv raisi A. Kamalov

202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

M.O.

O'zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi huzuridagi  
Transport va logistikani rivojlantirish  
muammolarini o'rganish markazi

Direktori  B. Xolmatov

202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

M.O'.

O'zbekiston Respublikasi  
Transport vazirligi  
vazir o'rinbosari I. Abdugafarov

202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_


M.O.

"Hakim Trans Servis" mas'uliyati  
cheklangan jamiyati

Direktor  I. Hakimov

202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

M.O.

"Marokand Khumo Services"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati  
Direktor  P. Nasriev

202\_\_ yil «\_\_» \_\_\_\_\_

M.O.